

“Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi AKTni rivojlantirish markazi” MChJ, keyinchalik “Ijrochi” deb yuritiladi, direktor A.A.Mirazizov vakillik qiluvchi, bir tomondan Nizom asosida ish yurituvchi va, bundan keyin “Buyurtmachi” deb yuritiladi.”, boshqa tomondan asosida ish yurituvchi vakili ushbu shartnomani quyidagicha tuzishdi:

1. Shartnoma mavzusi

- Buyurtmachi ko'rsatma beradi va ijrochi quyidagi xizmatlari amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi: Texnik qo'llab quvvatlash, serverlarda xosting, ichki axborot resurslarini ishlatish va boshqarish.
- Buyurtmachiga ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi bo'yicha 2022-yildan boshlab ushbu shartnomaga ilovaga muvofiq miqdorda va narxda xizmatlar ko'rsatadi.

2. Xizmatlar narxi va to'lov tartibi

- 2022-yil uchun shartnoma bo'yicha ishlarning umumiy qiymati QSSsiz 2 400 000 (ikki million to'tr yuz ming so'mni tashkil etadi. Shu jumladan, oylik abonent to'lovi QSSsiz 200 000 (ikki yuz ming) so'm.
- Buyurtmachi ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida shartnoma umumiy summasining 30 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi. Shartnomaning umumiy summasining qolgan qismi Buyurtmachi tomonidan bajarilganligi to'g'risidagi qabul qilish va topshirish dalolatnomasi va hisob faktura ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab har oy 10 bank kuni ichida to'lanadi.
- Xo'jalik shartnomasining amal qilish muddati 13-modda. Xo'jalik shartnomasi kuchga kiradi va u tuzilgan paytdan boshlab tomonlar uchun majburiy bo'ladi. Tomonlar o'zlari tuzgan xo'jalik shartnomasining shartlari shartnoma tuzilgunga qadar vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llanilishini belgilashga haqli. Xo'jalik shartnomasining amal qilish muddatining tugashi tomonlarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

3. Taraflarning javobgarligi

- Ayrim bosqichlarda yoki umuman ishlarni bajarish muddatlarini buzganlik uchun Ijrochi Buyurtmachiga bir oygacha kechikish uchun 15% miqdorida jarima to'laydi va bir oydan ortiq kechiktirilgan taqdirda, kalendar kunlariga muvofiq bajarilmagan ish narxining 20% miqdorida qo'shimcha penya talab qilishga haqlidir.
- Xizmat ko'rsatish muddatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Ijrochidan har bir kechiktirilgan kun uchun muddat o'tgan to'lov summasining 0,4% miqdorida, biroq ushbu narxning 50% foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni talab qilishga haqlidir.
- Penyalarni to'lash tomonlarni o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.
- Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan majburiyatlar “Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilanadi.

4. Nizolarni ko'rib chiqish

- Buyurtmachining tashabbusi bilan shartnoma bekor qilingan taqdirda, Buyurtmachi Ijrochining yozma xabarnoma olingunga qadar kalendar kuni hisobida ishlarni ishlab chiqarish uchun qilgan xarajatlarini qoplaydi.
- Ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, agar iloji bo'lsa, tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.
- O'zaro kelishuv bo'lmagan va shartnoma shartlarida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan hollarda nizolar manfaatdor shaxsning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksiga muvofiq xo'jalik sudida ko'riladi.

5. Boshqa shartlar

- Ushbu shartnomaning istalgan bosqichida tomonlar o'zaro kelishuvga binoan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishlari mumkin.
- Barcha o'zgartirishlar, qo'shimchalar shartnomaga qo'shimcha kelishuv bilan tuziladi. Ushbu shartnoma ikki nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzilgan va imzolangan.


6. Shartnomaning amal qilish muddati

- O'zbekiston Respublikasining “Davlat budjetining kassa ijrosi to'g'risida”gi Qonunining 7-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-sonli 594-son Farmonining 6-moddasiga asosan budjet tashkilotlari tomonidan tovarlar (ishlar va xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalar, shuningdek buyurtmachilarning budjet mablag'lari hisobidan kapital qurilishga oid shartnomalari G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilishi va shundan keyingina yuridik kuchga ega bo'lishi shart.
- Shartnomaning amal qilish muddati 01.01 2022-yildan 31.12 2022-yilgacha.
- Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari:

«Ijrochi»

“Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi AKTni rivojlantirish markazi” MChJ Toshkent viloyati, Nurafshon shahri. Toshkent yo'li ko'chasi 90 uy
h/r20208000504743205001
OPERU AKB «Kapitalbank»
MFO 00974, STIR 301010406
OKED 62090, tel: 55-900-80-83

Direktor:  A. Mirazizov
M.O'.



M.O'.

 P. Anvarov